

7	Namangan muhandislik qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8	Fan/modul uchun mas'ullar: A.Nuriddinov - NamMQI, "QXM" kafedrasi dotsenti, t.f.n.
9	Taqrizchi(lar): Z.Isoqova - NamMQI, "Transport logistikasi" kafedrasi dotsenti, t.f.f.d.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

**"TASPIQLAYMAN"**  
NamMQI rektori  
Sh.Ergashev  
2024 yil



**NamMQI**  
O'quv-uslubiy boshqaruvi  
№ 759  
«3» 07 2024 y.

"CHORVACHILIK ASOSLARI" FANINING  
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 800000 – Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya

Ta'lim sohasi: 810000 – Qisloq xo'jaligi

Ta'lim yo'nalishi: 60810400 – Qishloq xo'jaligidainnavatsion texnika va texnologiyalarni qo'llash

NAMANGAN – 2024

Fan/modul kodi ChA2304 Fan/modul turi Tanlov	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	ECTS-Kreditlar 4	
	Ta'lim tili O'zbek			
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
Chorvachilik asoslari	60 (30 m/ 30 a)	60	120	

2.

### I. Fanning mazmuni

**Fanning asosiy maqsadi - "Chorvachilik asoslari"** fanini o'qitishdan maqsad chorvachilik mahsulotlari va xom ashyosini (go'sht, sut, tuxum, asal, jun, qorako'l terilari) davlat me'yori talabi asosida ishlab chiqarish ularni ko'paytirish yo'llari, sifatini yaxshilash va hom ashyoni qayta ishlash sanoatiga etkazib berishni o'rgatishdir.

**Fanning asosiy vazifasi** talabalarga chorvachilikning rivojlantirishning nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqboli, chorva hayvonlarini kelib chiqishi, xonakilashtirish, zot to'g'risidagi ta'limotning rivojlanish tarixi, chorva mollarini oziqlantirishning ilmiy asoslari, ozuqa ratsionlarini tuzish, chorvachilikda tanlash va saralash usullaridan foydalanish, chorva mollarini sun'iy usulda urchitish texnologiyasi, inson xayotida chorva mahsulotlarini ahamiyatini, shu soxaning jadal, ilg'or va chet mamlakatlar texnologiyalarini, fermer xo'jaligida chorva mahsulotlari etishtirish va tayyorlash muammolarini xal eta bilishni o'rgatishdir.

### I. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

#### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

#### 1-Mavzu. Chorvachilik asoslari faniga kirish

Chorvachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, holati, rivojlanish istiqbollari. Chorvachilikdagi barcha tarmoqlar, ulardan olinadigan mahsulot turlari, chorva mahsulotlarining insonlar uchun ahamiyati, chorva mahsulotlarini ishlab chiqarish miqdori

#### 2-Mavzu. Qishloq xo'jalik hayvonlarini kelib chiqishi va uning yovvoyi ajdodlari

Qishloq xo'jalik hayvonlarini barcha turlari bo'yicha, yovvoyi ajdodlari va ularni tavsifi, yovvoyi ajdodlarini qo'lga o'rgatish va xonakilashtirish, xonakilashtirishda

yuza kelgan o'zgarishlar. Xonakilashtirish davrlari.

**3-Mavzu. Qishloq xo'jalik hayvonlarini o'sish va rivojlanish qonuniyatlari**  
Qishloq xo'jalik hayvonlarini o'sish va rivojlanish davrlari, o'sish va rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar. Embriionalizm va infantilizm.

#### 4-Mavzu. Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish asoslari. Urchitish usullari.

Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish asoslarini sof zotli urchitish chatishtirish va duragaylash. Qarindoshli urchitish. Tizim va oilalar bo'yicha urchitish.

#### 5-Mavzu. CHorvachilikda nasilchilik ishlarini olib borish tanlash va saralash

Nasilchilik ishini asosiy maqsadi va vazifasi, chorvachilik xo'jaliklarida zootexnikaviy xisob-kitob ishlarini yuritish. Qishloq xo'jalik hayvonlarini tanlash va juflash, bonitirovka qilish. Qishloq xo'jalik hayvonlarini kelib chiqish va mahsuldorligiga qarab baholash.

#### 6-Mavzu. Qishloq xo'jalik hayvonlarini oziqlantirish asoslari. Ozuqalar klassifikatsiyasi. Ozuqalarni tayyorlash

O'simliklardan tayyorlanadigan ozuqalar (ko'k ozuqalar, ildizmevalilar va poliz ekinlari, dag'al ozuqalar, omixta yemlar, donli ozuqalar), texnikaviy ishlab chiqarish chiqindilari (suyak uni, qon uni, yog'i olingan sut) tarkibida azot tutuvchi sintetik moddalar.

#### 7-Mavzu. Ratsion va ratsion normasi xamda ozuqa birligi xaqida tushuncha. Ratsion tuzish printsiplari.

Ratsion tuzishni moxiyati, sog'in sigirlar, nasldor buqalar, buzoqlar, qo'ylar, otlar cho'chqalar va parrandalar uchun ratsion tuzish printsiplari. Ratsion strukturasi.

#### 8-Mavzu. Qoramolchilik. Qoramollarni klassifikatsiyasi, biologik xususiyatlari va zotlari

Qoramolchilikning mahsulot yo'nalishiga qarab tabaqalanishi, sut, sut-go'sht va go'sht yo'nalishidagi qoramol zotlari. O'zbekiston sharoitida rayonlashtirilgan qoramol zotlari va ularning tavsifi.

**9-Mavzu. Qoramollarning sut mahsuldorligi va sut ishlab chiqarish texnologiyasi** Sigirlarning sut mahsuldorligi va unga ta'sir etuvchi omillar. Sigirlarni qo'lda va mashinada sog'ish va ularning afzalligi. Sigirlarni mashinada sog'ishda yaroqliligi va uni aniqlash. Sog'ish texnikasi. Sut berish tezligini aniqlash. Yelin va so'rgichlar shakli

**10-Mavzu. Qoramollarning go'sht mahsuldorligi va sanoat asosida go'sht ishlab chiqarish texnologiyasi.**

Qoramollarning go'sht mahsuldorligini ta'rifi. G'o'shtdorlik va uning sifatiga ta'sir etuvchi omillar. Go'shtning sifati va xisob kitobi. Sanoat asosida go'sht ishlab

chiqarish texnologiyasi

**11-Mavzu. Qo'ychilik. Qo'ylar klassifikatsiyasi, biologik xususiyatlari va zotlari.**

Qo'ychilik uning ahamiyati, xozirgi holati va kelajagi. Qo'ylarni biologik xususiyatlari. Qo'y zotlari. Mahsulot yo'nalishiga qarab O'zbekiston Respublikasida rejali ravishda rayonlashtirilgan qo'y zotlarini tavsifi. Qo'ylar mahsuldorligi va qo'ychilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi. Qo'ylarning go'sht, sut, jun, teri mahsuldorligi. Qochirish va to'l olish mavsumini o'tkazish.

**12-Mavzu. Cho'chqachilik. Cho'chqalarning biologik xususiyatlari va zotlari.**

Cho'chqa zotlari. Cho'chqachilikni samaradorligi. Cho'chqalarning mahsulot yo'nalishiga qarab tabaqalanishi va tavsifi. Go'shtning morfologik tuzilishi va kimyoviy tarkibi. Go'sht sifatiga ta'sir etuvchi omillar. Turli qishloq xo'jalik hayvonlar go'shtini kimyoviy tarkibi. So'ygandan keyingi go'shtni o'zgarishi.

**13-Mavzu. Parrandachilikni ahamiyati va biologik xususiyatlari. Parranda zotlari.**

Parrandachilikni xalq xo'jaligidagi ahamiyati, parrandalarning biologik xususiyatlari va mahsuldorlik xususiyatlari. Parrandalarni go'sht mahsuldorligi. Parrandalar klassifikatsiyasi. Parranda zotlari.

**14-Mavzu. Parrandachilikda go'sht va tuxum ishlab chiqarish texnologiyasi.**

Inkubatsiya (jo'ja ochirish). Parrandalarni boqish usullari. Tuxum va parranda go'shti ishlab chiqarish jarayonlari. Ratsion tuzish.

**15-Mavzu. Yilqichilik. Otlarning biologik xususiyatlari va zotlari.**

O'zbekistonda rejali urchitilayotgan ot zotlari. Otlarni urchitish, oziqlantirish va asrash. Qulini va toylarni o'stirish. Otlardan olinadigan mahsulot. Otlarning mahsuldorligi va sporti. Otlarning go'sht va sut mahsuldorligi, Biyalarni sog'ish usullari. Otlarni yaylovda semirtirish va bo'rdoqilash. Ot sporti va milliy o'yinlari.

**III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsifa etiladi:

1. Qishloq xo'jalik hayvonlarini eksteriyerini aniqlash;
2. Qishloq xo'jalik hayvonlarining tana o'lchamlari va indekslari;
3. Qishloq xo'jalik hayvonlarini tamg' alash va tirik vaznini aniqlash usullari;
4. Qoramollarni yoshini aniqlash usullari;
5. Qishloq xo'jalik hayvonlarini o'sishini hisobga olish;
6. Chorvachilikda qo'llaniladigan birlamchi zootexnika hisob kitoblari;
7. Fermer xo'jaliklarida dag'al va shirali ozuqalarni hisobga olish;
8. Sog'in sigirlari uchun ratsion tuzish;
9. Sigirlarni sut mahsuldorligini hisobga olish;

10. Xo'jalikda uzluksiz sut ishlab chiqarish texnologiyasi;

11. Qishloq xo'jalik hayvonlarini semizlik darajasini aniqlash;

12. Qoramollarni go'sht mahsuldorligini xisobga olish;

13. Ozuqani kimyoviy tarkibi;

14. Qorako'l terisi sifatini aniqlash;

15. Chorvachilik fermalarida veterinariya-sanitariya xizmatlarini olib borish.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsifa etilgan mavzular:

1. Qishloq xo'jalik xayvonlarining individual rivojlanishi. Chorva mollarni ozuqa moddalariga talabi. O'zbekistonda tumanlashtirilgan qoramol, qo'y, echki, cho'chqa, ot va parranda zotlarini tavsifi.

2. Sanoat asosida parranda go'shti va tuxum etishtirish texnologiyasi. Maxsulotlarga birlamchi ishlov berish va marketing xizmati ko'rsatishda ilg'or fermer xo'jaliklaridagi texnologik jarayonlar. Xayvon mahsulotlaridan olinadigan ozuqalar tavsifi. Qishloq xo'jalik xayvonlarini kelib chiqishni o'rganish usullari.

3. Silos tayyorlash texnologiyasi. Senaj tayyorlash texnologiyasi. Pichan tayyorlash texnologiyasi. Chatishtirish usullari va ularni tavsifi. Gibridlash yo'li bilan yaratilgan qoramol zotini tavsifi. O'zbekistonda yaratilgan qoramol zotini tavsifi. Teri beruvchi qo'y zotini tavsifi. Ozuqa sifatini aniqlash usullari.

4. Sigirlarni sog'ish usullari va texnologiyasi. Sigirlarni mashinada sog'ishga yaroqliligini aniqlashdagi talablar. Go'shtni morfologik tuzilishi va kimyoviy tarkibi. Ozuqalarning kimyoviy tarkibi.

5. Chorvachilikda tanlash va saralash. Inkubatsiyaga qo'yiladigan tuxumlarga talablar. Parrandachilikda nasilchilik ishlari. Qoramolchilikda nasilchilik ishlari.

6. Qo'yehilikda nasilchilik ishlari. Cho'chqachilikda nasilchilik ishlari. Yilqichilikda nasilchilik ishlari.

Fan dasturida kurs ishini (loyiha) ni bajarish ko'zda tutilmagan.

**V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetentsiyalari**

**Talaba bilishi kerak:**

- qishloq xo'jaligida chorvachilikni o'rni, uning ko'p tarmoqliligi va chorva mahsulotlarini turlari;
- qishloq xo'jalik hayvonlarini zotlari, parrandalarning zot va krosslari;
- qishloq xo'jalik hayvonlarini kelib chiqishi, xonakilashtirish, xonakilashtirishda yuz bergan o'zgarishlar.

- chorva mahsulotlariga dastlabki ishlov berish texnologiyalari, chorva mahsulotlarini sifati va sifatiga ta'sir etuvchi omillar;
- hamda qishloq xo'jalik hayvonlarini o'sish va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar xaqida;
- qishloq xo'jaligida chorvachilikni o'rni, uning ko'p tarmoqliligi va chorva mahsulotlarini turlari;
- qishloq xo'jalik hayvonlarini zotlari, parrandalarning zot va krosslari;
- qishloq xo'jalik hayvonlarini kelib chiqishi, xonakilashtirish;
- chorvachilikda nasilchilik ishi va qishloq xo'jalik hayvonlarini oziqlantirish asoslarini;
- qishloq xo'jalik hayvonlarini ilmiy asoslangan norma bilan boqish texnikasi;
- ozuqa klassifikatsiyasi, chorva hayvonlari va parrandalarning mahsuldorligini aniqlash va uni oshirish yo'llari;
- hayvonlarni individual o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini, chorva hayvonlarini mahsuldorligi;
- sut va go'sht ishlab chiqarish texnologiyasi;
- qishloq xo'jalik hayvonlarining urchitish usullari;
- chatishtirish usullari, urchitish texnikasi hayvonlarini o'sish va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar;
- qishloq xo'jalik hayvonlari mahsuldorligini oshirish.

4

#### VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari

- Ma'ruzalar;
- Interfaol keys-stadilar;
- Seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol javoblar);
- Guruhlarda ishlash;
- Taqdimotlarni qilish;
- Jamoa bo'lib ishlash va ximoya qilish uchun loyihalalar.

#### VII. Kriditlarni olish uchun talablar.

Fanda belgilangan o'qitish natijalariga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshirishi lozim. Fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

#### Asosiy adabiyotlar

1. Marlen Felius, Peter A.Koolmess, Bert Theunissen. On the Breeds of Cattle – Historic and Current Classifications. 2011. Tutorial

2. Steven Leeson and J.O.Summers. Broiler Breeder Production. Kanada. 2011. Textbook

3. Rosalee Sinn, Paul Rudenberg, Barbara Carter. Raising Goats for Milk and Meat. 2008. Textbook

4. Written by Herman R.Purdy, R.John Dawes and Dr.Robert Hough, Revisions by Don Hutzel. Breeds of Cattle. Updated E Revised 2 nd Edition. 2008. Tutorial

5. Ikramov T.X. «Chorvachilik asoslari». /O'quv qo'llanma. O'qituvchi, Toshkent. 1996

6. T.Sh.Akmalxonov, S.Sh.Isamuxamedov va boshqalar. "Chorvachilikdan amaliy mashg'ulotlar" O'quv qo'llanma. Toshkent. 2009

7. P.S.Sobirov, A.Qaxxarov, S.D.Do'stqulov "Chorva mollarini urchitish" O'quv qo'llanma. Samarqand. 2003

#### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Food and Agriculture Organization of the United Nations. Farmer's Hand Book on Pig Production. 2009. Textbook
2. Kevin J.Stafford. Cattle Handling. 2005. Tutorial
3. Kulikov V.M.Ruban Yu.D. "Umumiy zootexniya" Darslik. O'qituvchi, 1980
4. Xamroqulov P. Karibaev K. "Qishloq xo'jaligi hayvonlarini oziqlantirish". Darslik. Toshkent. 1999.

5. S. Islomxo'jaev, K.Boboev, K.bulomov "Parrandachilikdan amaliy mashg'ulotlar". O'quv qo'llanma. Toshkent. "O'zbekiston" 1996

6. U.Nosirov "Qoramolchilik". Darslik. T,2001.

7. Qishloq xo'jaligida islo'atlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy xujjatlar to'plami 1 va 2 jildlar "Sharq" 1998

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontsepsiyasi to'g'risida" gi 27-oktyabr 2003-yil 342-sonli farmoni.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontsepsiyasini amalga oshirish chora tadbirlar to'g'risida" gi 476-sonli qarori 30-oktyabr 2003-yil.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Shaxsiy yordamchi, dexqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi 308-sonli qarori, 13 mart 2006.

Internet saytlari

[www.gov.uz](http://www.gov.uz) O'zbekiston Respublikasi 'ukumat portal

[www.agronews.ru](http://www.agronews.ru) Agro yangiliklar portal

[www.ark-inform.com/animalstat](http://www.ark-inform.com/animalstat)- Hayvonlar xaqida xabarlar

[www.proagro.com.ua/news](http://www.proagro.com.ua/news) - Agro program xabarlari

[www.ziyo.net](http://www.ziyo.net) –Bilimlar portal